

PROFESSIONAL (KASB-HUNAR) TA'ALIMDA DUAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

P.f.f.d. PhD To'rayev Ro'ziboy Norovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Informatika fani o'qituvchisi

O'roqov Orif Ashirali o'g'li

Termiz davlat universiteti akademik litseyi

Informatika fani o'qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada professional ta'lim tizimida dual ta'lim modelini joriy etishning ahamiyati, uning mazmun-mohiyati, shakllari va amaliy natijalari yoritib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье раскрывается значение внедрения модели дуального обучения в систему профессионального образования. Описываются её сущность, формы и практические результаты. Дуальная система образования, сочетающая теоретические знания с практическими навыками, показана как эффективный метод в профессиональных училищах, колледжах и техникумах.*

Annotation: *This article highlights the importance of introducing the dual education model into the professional education system. It describes the essence, forms, and practical outcomes of this model. The dual education system, which combines theoretical knowledge with practical skills, is shown to be an effective method in vocational schools, colleges, and technical institutions.*

Kalit so'zlar: *Professional ta'lim, Dual ta'lim, Kasb-hunar maktabi, Kollej va texnikumlar, Amaliy ko'nikma, Innovatsion ta'lim, Kadrlar tayyorlash, Ta'lim tizimi islohotlari, Ishlab chiqarish amaliyoti, Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi.*

Ключевые слова: *Профессиональное образование, Дуальное обучение, Профессиональное училище, Колледжи и техникумы, Практические навыки, Инновационное обучение, Подготовка кадров, Реформы системы образования, Производственная практика, Интеграция образования и производства.*

Keywords: *Vocational education, Dual education, Vocational school, Colleges and technical schools, Practical skills, Innovative education, Workforce training, Education system reforms, Industrial practice, Integration of education and production.*

Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Boisi, ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va

nazariyalar shakllantiriladi. Boshqacha aytganda, bugun jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin.

Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Norvegiya kabi davlatlar islohotni bog'chadan boshlab, 2-3 o'n yillikda o'ziga xos, samarali ta'lim-tarbiya tizimini yaratish evaziga fuqarolari ijtimoiy himoyalangan, iqtisodiy barqaror mamlakatlarga aylandi.

Respublikamizda ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, pedagog kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning hammasini ham ilm-fanning bugungi yuqori rivojlanish darajasiga to'la javob beradi, deb bo'lmaydi. Demak, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, ayniqsa, ta'lim tizimiga innovatsiya kiritishni kengaytirish hayotiy zaruratdir.

Xo'sh, bugun jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yana-da oshirish uchun nimalar qilish kerak? Sohada ko'p yillardan buyon to'planib qolgan, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni bartaraf etish qanday jihatlarga e'tibor qaratish lozim?

Birinchidan, mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish muhim deb, hisoblayman. Bunda avvalambor professional ta'limga etibor berish zarurdir.

Professional ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash kasb-hunar maktablari, kollejlarda va texnikumlarda amalga oshiriladi. Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib

chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Dual ta'lim tizimi — ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyati yaratiladi.

Professional ta'lim muassasalariga amaliyot jarayonida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishga ruxsat beriladi. 2022 yil 1 maydan boshlab bo'sh bo'lgan binolarni o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda tadbirkorlik sub'yektlariga o'qitish kurslarini tashkil etish yoki mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun 5 yilgacha bo'lgan muddatga ijaraga berishga ruxsat beriladi.

2023 yil 1 iyulga qadar professional ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi ishlab chiqiladi va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilinmoqda. U dual ta'limni Professional ta'lim muassasalariga oson tadbiiq qilinishiga

Endi kasb-hunar maktablari o'quvchilariga ham stipendiya to'lanishi mumkin. Bundan tashqari, professional ta'lim muassasalari rahbarlari va o'qituvchilari mehnatiga haq to'lashning yangi tabaqalashtirilgan tartibini joriy etish rejalashtirilmoqda.

Xulosa shuki, har doim har bir mamlakat uchun mutaxassislar tayyorlash, yetuk kadrlarni voyaga yetkazish muhim vazifalardan biri sifatida qaralgan. Demak, bugun o'z avlodi kelajagini o'ylagan har bir yurtdoshimiz Prezidentimiz olib borayotgan islohotlarga o'z ulushini qo'shishi kerak.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar ayniqsa professional ta'limda dual ta'limni rivojlantirish bu nafaqat ta'lim tizimimizning rivojig balki iqtisodiyotimizning yuksalishiga va yosh kadrlarning salohiyatli bo'lib vatanimiz rivojiga hissa qo'shishiga o'zining samarali hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risidagi"
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.09.2019 yildagi PF-5812-son Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida [tarbiyadir https://xs.uz/uz/post/millatni-buyuk-qiladigan-kuch-bu-ilm-fan-tali](https://xs.uz/uz/post/millatni-buyuk-qiladigan-kuch-bu-ilm-fan-tali)
3. <https://www.spot.uz/oz/2022/10/18/dual-education/>
4. https://www.norma.uz/oz/nhh_loyihalari/professional_talim_tizimiga_du
al_talim_shakli_joriy_etiladi